Kalit so‘zlar: ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv, ESG, SWOT-tahlil, likvidlik, investitsiyalar, sof foyda, harajatlar, reyting agentliklari, operatsion faoliyatdan olingan pul oqimi, uglevodorodlar zaxirasi.

Abstract: The oil and gas complex is a group of industries involved in the production, transportation and processing of oil and gas, as well as the marketing of their products, plays an important role in the development of the economy both in the domestic and foreign markets [1]. At the moment, the oil and gas industry is one of the main sectors of the national economy and makes a significant contribution to the socio-economic development of our country. Considering that the economy of modern Uzbekistan is characterized by an orientation towards the model of development of the raw materials sector, support of small businesses and expansion of the service sector, its sustainability significantly depends on the state and development of the mineral resource complex, fuel and energy complex. energy supply, primarily for the oil and gas sector.

Revenues from the oil and gas complex make a significant contribution to the country’s gross domestic product and constitute a significant part of the budget.

The financial and economic activities of oil and gas industry enterprises and their results largely depend on the current conditions of the world market. At the same time, prices for oil and natural gas are difficult to regulate and predict with sufficient reliability. A significant change in oil prices has a great impact not only on the financial performance of oil producing companies, but also on the state of the economy of the entire republic.

At this stage, it is necessary to emphasize the importance of geological exploration and investments directed towards them in ensuring the efficiency of the financial and economic activities of the fuel and energy complex, in particular the oil and gas industry [2].

In this article, the contribution of the oil and gas complex industry to the country's economy and areas of activity are discussed using the example of the joint-stock company Uzbekneftegaz, which is a leader in the industry. Based on a SWOT analysis, the company's position in the market and existing risks in financial and economic activities are considered. Against the background of the unstable situation in the field of energy supply in the Republic of Uzbekistan and the region as a whole, an analysis of the current situation in the oil and gas market, the directions of the company's activities and its development was carried out. indicators were assessed. This analysis allows you to see the development and improvement of companies from a development perspective.

Key words: environmental, social and corporate governance, ESG, SWOT analysis, liquidity, investments, net profit, expenses, rating agencies, cash flow from operating activities, hydrocarbon reserves.

Аннотация: Нефтегазовый комплекс - группа отраслей, занимающихся добычей, транспортировкой и переработкой нефти и газа, а также сбытом их продукции, играет важную роль в развитии экономики как на внутреннем, так и на внешнем рынке [1]. На данный момент нефтегазовая отрасль является одной из основных отраслей национальной экономики и вносит значительный вклад в социально-экономическое развитие нашей страны.
Учитывая, что для экономики современного Узбекистана характерна ориентация на модель развития сырьевого сектора, поддержки малого бизнеса и расширения сферы услуг, ее устойчивость существенно зависит от состояния и развития минерально-сырьевого комплекса, топливно-энергетического комплекса. энергообеспечение, прежде всего, нефтегазового сектора.
Доходы от нефтегазового комплекса вносят значительный вклад в валовой внутренний продукт страны и составляют значительную часть бюджета. Финансово-экономическая деятельность предприятий нефтегазовой отрасли и ее результаты во многом зависят от текущей конъюнктуры мирового рынка. В то же время цены на нефть и природный газ сложно регулировать и прогнозировать с достаточной надежностью. Значительное изменение цен на нефть оказывает большое влияние не только на финансовые показатели нефтедобывающих компаний, но и на состояние экономики всей республики.
На этом этапе необходимо подчеркнуть важность проведения геологоразведочных работ и направляемых на них инвестиций в обеспечении эффективности финансово-хозяйственной деятельности топливно-энергетического комплекса, в частности нефтегазовой отрасли [2].
В данной статье вклад отрасли нефтегазового комплекса в экономику страны, направления деятельности рассмотрены на примере акционерного общества "Узбекнефтегаз", которое является лидером в отрасли. На основе SWOT-анализа рассмотрено положение общества на рынке и существующие риски в финансово-экономической деятельности.
На фоне нестабильной ситуации в сфере энергоснабжения в Республике Узбекистан и регионе в целом проведен анализ текущей ситуации на рынке нефти и газа, направлений деятельности компании и ее развития. были оценены показатели. Этот анализ позволяет увидеть развитие и совершенствование компаний с точки зрения развития.

Ключевые слова: экологическое, социальное и корпоративное управление, ESG, SWOT-анализ, ликвидность, инвестиции, чистая прибыль, расходы, рейтинговые агентства, денежный поток от операционной деятельности, запасы углеводородов.

## КИРИШ

Ayni paytda, respublika hududida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalarni hisobga olgan holda yiliga o'rtacha 47,0 mlrd kub metr tabiiy gaz hamda 3,0 mln tonnadan ortiq suyuq uglevodorodlar qazib chiqarilmoqda.

Neft-gaz majmuasi kompleksi tarkibiga kiruvchi korxonalar faoliyatining eng muhim vazifasi – bu uglevodorod xom ashyosini qazib olish xajmlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4388-sonli qarori bilan belgilangan, ya'ni aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining energiya resurslariga bo'lgan extiyojini to'liq qondiradigan hamda Jamiyatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydigan darajaga yetkazish [3].

Ushbu muhim vazifaning bajarilishi investitsiya kiritishning xorijiy amaliyotda keng tarqalgan shartlari va mexanizmlari asosida qazib olinishi qiyin bo'lgan konlarda uglevodorod xom ashyosini qazib olishga dunyoning yirik neft-gaz kompaniyalarini jalb qilish, mustaqil xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda neft-gaz tarmog'i korxonalarining operatsion samaradorligini oshirish va xarajatlarini maqbullashtirish, shuningdek, ularning qarz yuklamasini kamaytirish, ekspluatatsion konlarda zamonaviy texnologiyalar asosida uglevodorod xom ashyosi qazib olishning unumdorligini oshirish kabi tadbirlar hisobiga ta'minlanadi [4].

Shu bilan birga, kompleks tarkibidagi qazib olish va qayta ishlash korxonalari amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari bo'yicha xalqaro tender savdolarida ishtirok etish uchun xorijiy neftservis tashkilotlarini jalb qilish, xorijiy tajribani hisobga olgan holda, shu jumladan, "raqamli kon" konsepsiyasini amalga oshirish asosida ish faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish ishlarini jadallashtirish, xalqaro konsalting kompaniyalarini jalb qilgan holda neft-gaz tarmog'idagi investitsiya loyihalarini tanqidiy

oʻrganish va mahalliy neft-gaz qazib oluvchi korxonalarning real moliyaviy imkoniyatlariga qarab maqbullashtirish masalalriga ham jiddiy urgʻu berishlari talab etiladi.

“Oʻzbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining 2024-yildagi eng muhim vazifalaridan biri yangi konlarni izlash boʻyicha geologiya-qidiruv ishlari dasturini ishlab chiqish boʻlib, mazkur vazifa uglevodorod xom ashyosi zaxiralari va respublika boʻyicha tabiiy gaz qazib olish hajmini koʻpaytirishga omil yaratadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning axborot bazasini statistik maʼlumotlar, neft qazib oluvchi va qayta ishlovchi korxonalar faoliyati toʻgʻrisidagi tahliliy maʼlumotlar tashkil etadi. Tadqiqotning uslubiy asosini axborotni tahlil qilishning statistik usullari tashkil etadi: qiyosiy tahlil, vaqt seriyalari tahlili, korrelyatsiya va regressiya tahlili.

Neft-gaz korxonalari moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining kompleks tahlili doimiy ravishda iqtisodchi olimlar tomonidan qizgʻin tahlil va munozara obyekti boʻlib kelgan.

Xususan, mahalliy olimlardan Malikov T., Jalilov Sh., Nosirov E., Elmirzayev S., Bakiyeva I. tadqiqotlarida yoqilgʻi-energetika majmuasi, xususan neft-gaz koorxonalarida moliyaviy faoliyat barqarorligini taʼminlashga olib keluvchi omillar, ularda soliq munosabatlari, korporativ moliya, investitsiyalar oqimlari tahlili olib borilgan.

Larionova Ye.I., Popova A.A., Shpakovskaya Ye.P. tomonidan neft qazib oluvchi korxonalar moliyaviy koʻrsatkichlari tahlili yuritilgan boʻlsa, Gayfullina M.M., Makov V.M. tomonidan neft-gaz mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarining rivojlanish tendensiyalari va unga sabab boʻlovchi vositalar baholangan. Jukov S.V., Zolina S.A. oʻz asarlarida AQSHdagi moliyaviy bozorlar hamda nekonvension neft tahlilini olib borilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, ilmiy monografiyalari, oʻquv qoʻllanmalari va maqolalarini tahlil qilish, statistik tahlillari, jadvallarni analitik taqqoslash, guruhlash, miqdor va sifat koʻrsatkichlarni hisoblash, ularni bir-biri bilan solishtirish kabi uslublardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda “Oʻzbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyatining suyuq uglevodorodlar va tabiiy gazni qazib olish ishlari amalga oshirilayotgan konlar soni 127 tani tashkil etadi, shundan 85 ta konda ishlab chiqish ishlari amalga oshirilmoqda, 42 ta kon konservatsiya va razvedkada. Oʻzlashtirilayotgan konlar tarkibidagi eng koʻp miqdorda uglevodorod qazib olinadigan asosiy konlar uzoq davr mobaynida foydalanilib kelinmoqda, ularning ishlatilganlik darajasi yuqori, uglevodorod zaxiralari kamayib ketgan hamda quduqlardagi bosimi va qazib olish imkoniyatlari pasayib ketgan.

Jamiyatning soʻnggi yillardagi resurs bazasining tahliliga koʻra, asosiy konlar (Alan, Shoʻrtan, Zevarda, Samantepa, Oʻrtabuloq, Janubiy Kemachi, Dengizkoʻl, Shimoliy Dengizkoʻl, Sharqiy va Shimoliy Berdaq, Doyaxotin) ekspluatatsiyasi oxirgi bosqichga yetib kelgan, zaxiralar qazib chiqarilishi murakkab boʻlgan konlardan olinadigan uglevodorodlar ulushi hamda kichik va unumdorligi past konlar soni koʻpaymoqda.

Uglevodorod xom ashyosini qazib chiqarish va tabiiy gazni qayta ishlash borasida jamiyatning asosiy vazifalaridan biri – neft va gaz konlarini oʻzlashtirish, tabiiy gaz, neft va gaz kondensatini qazib olish hamda ularni chuqur qayta ishlash jarayonini samarali tashkil etish.

Tezkor maʼlumotlarga koʻra 2023-yil yakuni bilan 30 mlrd kub mga yaqin tabiiy gaz qazib olinishi kutilmoqda. Tabiiy gaz, gaz kondensati va neftni jamiyatning quyidagi boshqarmalari qazib chiqaradi:

- Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Shurtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Gazli neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Ustyurt gaz qazib chiqarish boshqarmasi;
- Vodiy neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi, “LUKOYL Uzbekistan opereyting kompani” MCHJ, “Natural Gas Stream” MCHJ QK, “New Silk Road Oil and Gas” MCHJ QK, “Kukdumalok gaz” MCHJ QK, “Sanoat Energetika Guruhi” MCHJ XKlardan olingan yuqori va kam oltingugurtli gazlar qayta ishlanadi.

Qazib olingan tabiiy gaz tozalangandan va quritilgandan keyin “UzGasTrade” AJ, “Hududgaztaʼminot” AJ va “Uz-Kor Gas Chemical”MCHJ HKga sotiladi.

Tabiiy gaz va nobarqaror gaz kondensatini qayta ishlash jarayonida olinadigan suyultirilgan gaz birja savdolari orqali yoqilgʻi quyish shoxobchalariga realizatsiya qilinadi, aholi va ijtimoiy obyektlarni taʼminlash

uchun “Hududgazta’minot” AJ korxonalariga yetkazib beriladi, Jamiyat tarkibidagi korxonalarning avtotransport vositalari ehtiyojlari uchun foydalaniladi va eksport qilinadi.

Neft va gaz kondensati “Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJda qayta ishlash orqali neft mahsulotlarini ishlab chiqariladi va NQIZ tomonidan birja savdolari orqali sotildi. Gaz kondensatining bir qismi “Uz-Kor Gas Chemical” MCHJ HKga sotilib, keyinchalik Ustyurt gaz-kimyo majmuasida qayta ishlanadi.

Oltingugurt respublika korxonalariga birja savdolari orqali realizatsiya qilinadi hamda eksport qilinadi. Shu bilan birga, jamiyat tarkibidagi neft va gaz qazib olish boshqarmalari va gazni qayta ishlash zavodi tomonidan respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga tabiiy gaz va uglevodorodlarni tayyorlash, qayta ishlash, tabiiy gaz va gaz kondensatini tashish hamda suyultirilgan gaz, oltingugurtni saqlash xizmatlari koʻrsatiladi.

Bundan tashqari, 2022-yilning II choragida “Shoʻrtan GKM tozalangan metan gazi negizida sintetik mahsulot ishlab chiqarish loyihasi toʻliq yakunlanib GTL zavodi ishga tushirildi va 2022-yilning iyul oyidan mahsulot ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyildi. Gazni chuqur qayta ishlashdan sintetik dizel yoqilgʻisi, sintetik kerosin, sintetik nafta va sintetik suyultirilgan gaz ishlab chiqarish evaziga respublikada neftgaz mahsulotlariga boʻlgan talabni qondirish bilan birga, Jamiyatning eksport salohiyatini oshirishga xam zamin yaratildi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining asosiy ulushi ichki bozor talabini qondirish uchun yoʻnaltirilmoqda. Shu bilan birga, “Oʻzbekneftgaz” AJ korxonalari tomonidan polietilen, suyultirilgan gaz, sintetik maxsulotlar va boshqa neft mahsulotlari eksport qilinadi.

2023-yil yakuni boʻyicha 106,8 ming tonna sintetik nafta, 70,6 ming tonna sintetik dizel yonilgʻisi (“Uzbekistan GTL” MCHJ) va 15,1 ming tonna piroliz gazolini (“Buxoro NQIZ” MCHJ) eksport qilinishi kutilmoqda. Ushbu mahsulotlar asosan Turkiya, Rossiya, Tojikiston, BAA, Latviya, Xitoy, AQSH, Qozogʻiston, Yeevropa hamda Osiyoning bir qator davlatlariga eksport qilinib kelinmoqda.

Jamiyatning 2021–2023-yillardagi asosiy moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlari tahliliga koʻra 2023-yil yakunlariga koʻra “Oʻzbekneftgaz” AJning sof foydasi 1 370,0 mlrd soʻmni tashkil etishi kutilmoqda (1-jadval).

1-jadval: Jamiyatning 2021–2023-yillardagi asosiy moliyaviy-iqtisodiy koʻrsatkichlari tahlili

| Koʻrsatkichlar (mlrd.soʻm) | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil kutilishi |
|---|---|---|---|
| Jami daromadlar | 12 296 | 13 441 | 15 679 |
| Jami operatsion xarajatlar | (10 229) | (10 775) | (14 273) |
| Operatsion faoliyatdan foyda (zarar) | 2 067 | 2 666 | 1 406 |
| Soliq toʻlagunga qadar foyda (zarar) | 1 712 | 2 806 | 1 512 |
| Sof foyda (zarar) | 1 321 | 2 486 | 1 370 |

Ta’kidlash joizki, sof tushumining qariyb 50 foizdan ziyodi tabiiy gazni sotishdan, 35,1 foizini neft mahsulotlarini sotishdan, 2,5 foizini suyultirilgan gazni sotishdan va 8,6 foizini oltingugurt va boshqa mahsulotlar (xizmatlar) sotishdan olingan daromadlar tashkil etadi (1-rasm).




1-rasm: 2023-yilda mahsulot turlari boʻyicha sof tushumning tuzilmasi



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jamiyatning bozorda egallagan oʻrnini hamda mavjud risklarni aniqlash maqsadida oʻtkazilgan SWOT-tahlilga koʻra neft va gaz sanoati respublika iqtisodiyotining bazaviy tarmoqlaridan biri hisoblanadi, Jamiyat esa energiya resurslari bozorida yetakchi oʻrinni egallaydi (2-jadval).

2-jadval: Jamiyatning bozorda egallagan oʻrnini hamda mavjud risklarni aniqlash maqsadida oʻtkazilgan SWOT-tahlili

| | Ijobiy ta'sirlar | Salbiy ta'sirlar |
|---|---|---|
| Ichki muhit | Strengths (afzalliklar)<br>Bozorda ustun mavqega ega;<br>Bozorda kompaniya mahsulotlariga barqaror talab mavjud;<br>Nisbatan katta hajmda isbotlangan tabiiy gaz zaxiralari mavjud;<br>Diversifikatsiyalangan ishlab chiqarish;<br>Mamlakatdagi eng yirik soliq toʻlovchilardan biri;<br>Mamlakatdagi eng yirik ish beruvchilardan biri;<br>Shaffof boshqaruv tizimi;<br>Ishlab chiqishning zamonaviy usullari qoʻllanilishi. | Weakness (kamchiliklar)<br>Yirik konlarning ishlatilganlik darajasi 80-90 foizni tashkil etadi;<br>Zaxiralarning oʻsish sur'atlari yetarli darajada yuqori emas;<br>Neft va gaz konlari geografik jihatdan tarqoq joylashgan;<br>Qayta ishlash quvvatlaridan toʻliq foydalanilmaydi;<br>Tabiiy gazni sotish narxining belgilanishi davlat nazoratida;<br>Jamiyat aktivlari tarkibida debitor qarzdorliklar ulushining yuqori boʻlishi. |
| Tashqi muhit | Opportunities (imkoniyatlar)<br>Aksiyalarni birlamchi ommaviy taklif qilish (IPO);<br>Qulay makroiqtisodiy muhit;<br>Faoliyatni chuqur qayta ishlash va yuqori qoʻshilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish yoʻnaltirish;<br>Jahon bozorlariga chiqish;<br>Tabiiy gaz ishlab chiqaruvchilari va import qiluvchilarining ulgurji bozorini tashkil etish. | Threats (xatarlar)<br>Geologiya-qidiruv tadbirlari natijalariga koʻra zaxiralarni oʻsish sur'atlari yetarli darajada boʻlmasligi;<br>Muqobil energiya va yoqilgʻi manbalarining rivojlanishi;<br>Yuqori soliq yuki (35 foizgacha, dividendar bilan 42 foiz);<br>Raqobat kuchayishi. |

Jamiyat faqatgina aksiyadorlarning iqtisodiy manfaatlari uchun xizmat qilib qolmasdan, davlat budjeti daromadlarini shakllantiruvchi eng yirik kompaniyalardan biri hisoblanadi. 2023-yil yakuni boʻyicha tizim korxonalari tomonidan davlat budjetiga toʻlangan soliqlar hajmi 7,5 trln soʻmni tashkil etadi.

Jamiyat mamlakatning eng yirik ish beruvchilaridan biri boʻlib, xodimlarining soni 13 989 kishini tashkil etadi.

Jamiyat korporativ boshqaruvining zamonaviy usullari, raqamli transformatsiya hamda xalqaro konsalting kompaniyalari va moliya institutlarini ("Ernst & Young", "KRMG" va boshqalar) jalb qilgan holda xalqaro standartlarga oʻtishga asoslangan rivojlanishning yangi taraqqiyot yoʻlini belgilab oldi.

Bugungi kunda jaxondagi neft va gaz sanoati yetakchilari bilan faol hamkorlik yoʻlga qoʻyilgan. Oʻzbekiston -da uglevodorodlarni qazib olish va qayta ishlash jarayonlarida Lukoyl, Gazprom, BP, SOKAR, Tatneft, Air Products va Koreya, Xitoy kabi mamlakatlar kompaniyalari ishtirok etmoqda.

## MUNOZARA

Tahlil jarayonida jamiyatning ba'zi xatarlar ham aniqlandi. Jumladan, kompaniyaga qarashli yirik konlarning ishlatilganlik darajasi nisbatan yuqoriligi (80-90 foiz) uglevodorodlar qazib chiqarishning oʻsish sur'atlari pasayishiga hamda xom ashyoning komponent tarkibi yomonlashishiga ta'sir etadi [5]. Bundan tashqari, jamiyat aktivlari tarkibida debitor qarzdorliklar ulushining yuqori boʻlishi va bu aylanma mablagʻlar aylanishining hamda likvidlilik darajasining pasayishiga olib kelayotganligi ham katta xavf sifatida baholanishi zarur.

"Oʻzbekneftgaz" AJ tomonidan 2021-yilda dunyoning yetakchi agentliklari hisoblangan "S&P Global" va "Fitch Ratings" korporativ kredit reytingi olindi. 2022–2023-yillar davomida esa xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan "Oʻzbekneftgaz" AJ korporativ kredit reytingi yangilandi.

Mazkur yoʻnalishda "Rothschild & So." boshchiligida xalqaro konsalting va yuridik kompaniyalar guruhi jalb qilindi ("Ernst&Young", huquqiy masalalar boʻyicha "White&Case", strategik rivojlantirish masalasi boʻyicha

“Boston Consulting Group”, korporativ boshqaruv masalasi bo‘yicha hamda ESGni tatbiq qilish bo‘yicha “PricewaterhouseCoopers”). Konsultantlar jamiyatning IPOga tayyorligini kompleks diagnostika (due diligence) qildi va dunyodagi yetakchi fond birjalarining talablariga muvofiqlashtirish va xalqaro standartlarni joriy qilish bo‘yicha tavsiyalarni (red flag report) ishlab chiqdi.

Ma’lumki, IPOga chiqish aksiyadorlik kapitali likvidligini oshishiga ta’sir qilish bilan bir vaqtda joriy xarajatlarni qoplash, qarz yuklamasini kamaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, yirik loyihalarni amalga oshirish va boshqa xarajatlarga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan uzoq muddatli moliyaviy resurslarni tashqaridan jalb qilish imkoniyatini yaratadi [6].

Shundan kelib chiqqan holda hozirgi paytda maslahatchilar jamoasi tomonidan loyihani amalga oshirishning 3-bosqichi belgilangan “Yo‘l xaritasi” tayyorlangan, ya’ni IPOga tayyorligini dastlabki baholash, qarz portfelini tahlil qilish va qayta yo‘naltirish hamda uchinchi bosqichda IPOga tayyorgarlik ko‘rish.

2023-yilning oktyabr oyi oxirida “S&P Global Ratings” o‘z hisobotlarida “O‘zbekneftgaz” AJning reytingini “VV-”dan “V+”ga tushirdi [7].

Kompaniyaning reytingi nisbatan past tavakkalchilik darajasida (VV- edi, endi esa u pastroq darajaga (V+) tushdi, bu yerda risklar yuqori, lekin moliyaviy majburiyatlarni bajarish, ya’ni kreditorlar oldidagi qarzni to‘lash imkoniyati mavjud.

Agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, “O‘zbekistan JTL” zavodida lolyihani amalga oshirish davomiylik nuqtasining siljishi (ya’ni uzoqroq ishga tushirilishi), yuqori foiz xarajatlari va mamlakatda gaz mavjudligi bilan bog‘liq umumiy havotirlar tufayli kredit ko‘rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishi noaniq.

Reyting agentligi tahlilchilarning prognozlariga ko‘ra, gaz xomashyosi mavjudligining biroz cheklanganligi sababli O‘zbekiston JTLni loyihaviy quvvatga o‘tkazilishi yana ikki-uch yil davom etishi mumkin.

Shu bilan birga, reyting agentligi tomonidan jamiyat kredit reytingini avvalgi darajaga ko‘tarish shartlari sifatida jumladan, quyidagilar ko‘rsatib o‘tilgan:

- agar aylanma mablag‘larning o‘zgarishiga qadar operatsion faoliyatdan olingan pul oqimi ((funds from operations – FFO) / qarz”) barqaror bo‘lsa;
- operatsion faoliyatdan doimiy ijobiy erkin pul oqimi bilan;
- likvidlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan taqdirda;
- kapital xarajatlarga nisbatan qat’iy va bashorat qilinadigan moliyaviy siyosat, kutilgan sof daromadning 50 foizdan oshmaydigan dividend to‘lovlari va qarz hisobidan moliyalashtirilgan yirik xaridlarning yo‘qligi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

2024-yil va undan keyingi davrda “O‘zbekneftgaz” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini barqarorlashtirish, moliyaviy-xo‘jalik samaradorligini ta’minlash maqsadida quyidagilarni ko‘zda tutuvchi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xarajatlarni maqbullashtirish, operatsion faoliyat samaradorligini oshirish dasturini amalga oshirish;
- boshqarma va zavodlarining energiya samaradorligi sohasidagi texnik siyosatni amalga oshirish;
- biznes risklarni boshqarish;
- tasarrufdagi konlardan uglevodorod xom ashyosini qazib chiqarish prognoz ko‘rsatkichlarini shakllantirishga qaratilgan geologik-texnik tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish;
- kompaniyaning tashkiliy, ishlab chiqarish va moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarini boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish jarayonlarini davom ettirish;
- ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG – Environmental, Social, and Corporate Governance) standartlarini joriy etish;
- moliyaviy huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, shuningdek, korrupsion risklarni minimallashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish va boshqalar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, neft-gaz majmuasi mamlakat iqtisodiyoti rivojiga katta hissa qo‘shmoqda, shuning uchun uning rivojlanish tendensiyalarini muntazam tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Moliyaviy ko‘rsatkichlarning iqtisodiy va statistik tahlili natijalariga ko‘ra neft-gaz kompleksini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash, ijobiy va salbiy jarayonlarga baho berish, istiqboldagi istiqbollarni belgilash mumkin.



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ларионова Е.И., Попова А.А., Шпаковская Е.П. Анализ финансовых показателей нефтедобывающих компаний // Вопросы статистики. 2017. № 7. С. 17-27.
2. J.Umurzakov "Neftgaz korxonalarida geologiya-qidiruv ishlarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish" Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 2, April 2023. ISSN: 2181-1016/
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4388-sonli qarori.
4. Гайфуллина М.М., Маков В.М. Оценка развития нефтеперерабатывающего сектора Российской Федерации // Нефтегазовое дело. 2016. Т. 14. № 4. С. 208.
5. Жуков С.В., Золина С.А. США: финансовые рынки и развитие сектора неконвенциональной нефти // Мировая экономика и международные отношения. 2016. Т. 60. № 11. С. 14-24.
6. Бакиева И.А,, Умурзаков Ж.Ш. "Оценка финансово-экономической деятельности нефтегазовых компаний", Совместная международная научно-практическая конференция ТФИ и Уральского государственного экономического университета на тему: "Трансформация бизнес-процессов в условиях цифровизации экономики и обеспечения финансовой безопасности", сб.науч. ст. / редкол.: Н.С.Касимова (отв. ред.) [и др.]. – Ташкент: ТФИ, 2023. – 638 с.
7. https://disclosure.spglobal.com/ratings/ru/regulatory/article "Рейтинг АО "Узбекнефтегаз" понижен с "BB-" до "B+" из-за снижения показателей кредитоспособности и ограниченной ликвидности; прогноз – "Стабильный", 30 октября 2023 г.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan.